

«MIRHAUSSTROY» MChJ keyingi o'rinlarda «Sotuvchi» deb yuritiladi, nomidan Nizom asosida ish yurituvchi rahbari Siddiqov M. nomidan bir tomondan va Sirdaryo-So'x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Meliorativ Ekspeditsiyasi keyingi o'rinlarda «Xaridor» deb yuritiladi Nizom asosida ish yurituvchi rahbari Z.Ismoilov nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

I. ShARTNOMA PREDMETI

1.1. «Sotuvchi» o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkni sotish, «Xaridor» esa qabul qilib olingan mahsulot yoki tovar (ko'rsatilgan xizmat) uchun to'lovlarni belgilangan tartibda amalga oshirish majburiyatini oladilar.

II. ShARTNOMA NARXI

2.1.

No	Mahsulot yoki tovar (ko'rsatilgan xizmat) nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Summasi
1	На приобретение и покупку ультразвукового измерителя для измерения грунтовых вод и степень минерализации	шт	30	11 950 000	358 500 000
	Jami				358 500 000

Tovarning shartnomaviy umumiy bahosi 358 500 000 (uch yuz ellik sakkiz million besh yuz ming) so'm

III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI.

3.1. «Xaridor» ko'rsatiladigan xizmatning 30 % (foiz) miqdorida pul mablag'larini oldingan o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi. Qolgan 70 % (foiz) qismini «Sotuvchi» tomonidan ishlar to'liq bajarilib, hisob-fakturalarni taqdim qilgandan so'ng amalga oshiradi.

IV. TOVAR YETKAZIB BERISH MUDDATI.

4.1. «Sotuvchi» mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirgandan so'ng, 10 (o'n) kun muddatda «Xaridor»ga olib kelingan mahsulot, tovar (ko'rsatilgan xizmat)larni ko'rsatishi shart.

V. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. «Sotuvchi»ning huquq va majburiyatlari:

- mahsulotni shartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan holda o'z vaqtida «Xaridor»ga yetkazib berish;

- shartnomaning shartlari «Xaridor» tomonidan buzilganda ko'rsatilayotgan tovarni to'xtatib qo'yish xuquqiga ega;

- tegishli darajada tovar yetkazib berilgandan so'ng, sifatli bo'lmagan tovarlarni ushbu shartnomaning 2-bandi talablarida ko'rsatib o'tilgan shartnomaning umumiy summasidan sifatli bo'lmagan tovar bahosini qaytarib berish. Sifatsiz tovar haqida «Sotuvchi»ga xabarnoma olgandan so'ng tomonlar o'rtasida sifatsiz tovarlarni qaytarib berish bo'yicha o'zaro dalolatnoma tuziladi.

- «Sotuvchi» yetkazib bergan mahsulotlarini hisob-varaqlarda to'liq va aniq nomini, mahsulot navini, kategoriyasini va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi shart. Shuningdek, hisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to'liq rekvizitlarni rasmiylashtirish lozim.

5.2. «Xaridor»ning huquq va majburiyatlari:

- «Xaridor» shartnomada belgilangan talablarga rioya qilgan holda, tovarlarni dalolatnoma tuzib, ushbu shartnomada va qonun hujjatlarida belgilangan butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab o'z vaqtida qabul qilib olishi lozim;

- tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulk kelib tushganligi aniqlangandan so'ng, ushbu to'g'risida tegishli dalolatnoma tuzib, bu haqda 3 kun muddat ichida «Sotuvchi»ni ogohlantirishi zarur;

- mahsulotlarlar to'liq rasmiylashtirilmagan hamda mahsulotning sifati, navi va kategoriyalari ko'rsatilmagan hisob-varaqlar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

VI. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

6.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatalrni ijro etilmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, shuningdek, ushbu shartnomada nazarda tutilgan talablar asosida javobgar bo'ladi.

6.2. «Sotuvchi» tomonidan «Xaridor»ga tovar va mahsulotlarni belgilangan muddatlarda yetkazib bermaganligi uchun kechiktirilgan har bir kun uchun yetkazib berilmagan mahsulot qiymatining 0,5% (foiz) miqdorida «Xaridor»ga penya to'laydi lekin penya miqdori kechiktirilgan mahsulot qiymatining 50 % (foiz) dan oshmasligi kerak.

6.3. Shartnoma talablarida ko'rsatilgan va belgilangan sifatlardagi hamda butlashdagi mol-mulk yetkazib berilmagan taqdirda, aybdor taraf ushbu mahsulot qiymatining 20 % (foiz) miqdorida jarima to'lashiga sabab bo'ladi.

6.4. «Xaridor» tomonidan olingan tovar yoki mahsulot uchun to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan summaning 0,01 % (foiz) miqdorida «Sotuvchi»ga penya to'laydi, bunda penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan summaning 50 % (foiz) dan ortiq bo'lmasligi lozim.

6.5. Nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish davomida yetkazib berilgan tovar yoki mahsulotlar narxi yuqori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq yetkazib beruvchi tomonidan qoplanadi.

VII. FORS-MAJOR HOLATLAR.

7.1. Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmay kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar bo'yicha javobgar emas. Favqulodda tushdagi holatlarga (suv toshqini, yong'in, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar), shuningdek, harbiy harakatlar, davlat organlarining aktlari yoki harakatlari va taraflar nazorat qila olmaydigan boshqa har qanday holatlar tegishlidir.

7.2. Taraflar ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to'g'risida albatta ikkinchi tarafni ogohlantirishi shart.

7.3. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch 1 oy davomida uzluksiz ravishda davom etsa, taraflar bir-birini yozma ravishda ogohlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilish yoki qo'shimcha ijro muddatlarini belgilashlari mumkin.

VIII. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmagan taqdirda mavjud nizolar iqtisodiy sudlar orqali O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida hal qilinadi.

8.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan oldin bekor qilish mumkin.

IX. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATI VA KUCHGA KIRISHI.

9.3. Ushbu shartnoma 2022-yil 5-dekabr kunidan 2022-yil 31-dekabr kuniga qadar amal qiladi.

9.4. Mazkur shartnoma 2 nusxada tuzilib, bir xil yuridik kuchga ega bo'lib hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun 1 nusxadan beriladi.

9.5. Shartnoma taraflar tomonidan imzolaniib, g'aznachilik bo'limida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

X. QO'SHIMCHA SHARTLAR.

10.1. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilishi va har ikkala taraflar orqali imzolinishi kerak.

XI. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI.

«Sotuvchi»

«Xaridor»

«MIRHAUSSTROY» MChJ


Sirdaryo-So'x ITHB huzuridagi Meliorativ Ekspeditsiyasi

Bog'dod tumani Farovon 4-uy
INN 302689612, OKONX 61124
x/r 20208000400764465001
MFO 01168, INN 309531986
Farg'ona "Ipak yo'li" AIT
Tel: 94-557-80-07

Farg'ona sh. Al-Farg'oniy 72
INN 200146500, OKONX 22100
G'aznachilik 23402000100001010
MFO 00014, INN 201122919
Moliya vazirligi G'aznachiligi
Tel: 73-244-74-80
ShXR 100021860304017042402170017
MFO 00014, INN 201122919

Rahbar  M. Siddiqov

Rahbar  Z. Ismoilov

исполн: 

A. P. Paizyoraev